

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, A.A.Ergashev

Alohida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

TARIHX

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarining shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxon zodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinboyev ilmiy tadqiqotlarini o'rganilganlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgiya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

**R.X.SULAYMONOV TADQIQOTLARIDA QADIMGI SO'G'D MODDIY MADANIYATI
MUAMMOLARI**

**ПРОБЛЕМЫ МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ДРЕВНИХ СОГДОВ В
ИССЛЕДОВАНИЯХ Р.Х.СУЛАЙМОНОВА**

**PROBLEMS OF THE MATERIAL CULTURE OF THE ANCIENT SUGADS IN THE
STUDIES OF R.H.SULAYMONOV**

Maxmudova Aziza Nosirovna¹

¹Maxmudova Aziza Nosirovna

- Farg'ona politexnika institute ferpi.uz, assistant

Annotatsiya

Maqolaning maqsadi olim R.H.Sulaymonov tadqiqotlari orqali qadimgi So'g'd moddiy madaniyati tarixiga oid muammolar va Yerqo'rg'on yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida So'g'd aholisining e'tiqod ramzlarini aks ettiruvchi terrakotalar, koroplastika san'ati vujudga kelish omillarini o'rganadi. Olim qo'lga kiritilgan qadimiy moddiy madaniyat namunalari tahlil etib, So'g'dning antik davr tasviriy san'atiga ikki xil – ellincha va mahalliy uslublar o'zaro samarali ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydi va ularni taqqoslash, qiyosiy tahlil qilish metodlari orqali o'rganadi. R.H. Sulaymonov Yerqo'rg'on yodgorligidan topilgan ko'p miqdordagi moddiy ashyolar qadimiy va ilk o'rta asrlarda Qashqadaryo vohasining O'rta Osiyo mintaqasidagi tarixiy va badiiy jarayonlarga uyg'un holda kechganligini ko'rsatib berdi. Yerqo'rg'on olib borilgan tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar qadimgi yerqo'rg'onliklarning yuksak madaniyatini ko'rsatganligini isbotlab berdi. Undagi me'moriy va san'at yodgorliklari qadimiy madaniyatning g'arbdagi etrusklar va yunonlardan boshlab Sharqda Hindiston va Sibirga qadar keng maydonlarda yonma-yon rivojlanganligini aniqladi.

Аннотация

Цель статьи, благодаря исследованиям ученого Р.Х.Сулайманова, заключается в создании терракот, корропластического искусства, отражающих символы веры согдийского народа, в результате решения проблем, связанных с историей материала культура древнего Согда и исследования, проведенные в Еркурганском памятнике, изучают факторы прихода. Анализируя образцы древней материальной культуры, ученый подчеркивает, что два типа - эллинистический и местный стили оказывали взаимодействующее влияние на изобразительное искусство древнего Согда, а их сопоставление и сравнительный анализ изучается с помощью методов. Р.Х. Сулайманов показал, что большое количество материальных предметов, найденных в Еркурганском памятнике, находилось в гармонии с историческими и художественными процессами Кашкадарьинского оазиса в Среднеазиатском регионе в древности и раннем средневековье. Данные, собранные в результате исследований, проведенных в Еркургане, доказали высокую культуру древних еркурганцев. Его архитектурные и художественные памятники показали, что древние культуры развивались бок о бок на обширных территориях, начиная от этрусков и греков на западе до Индии и Сибири на востоке.

Abstract

The purpose of the article, through the researches of the scientist R.H. Sulaimanov, is to create terracottas, coroplastic art, which reflect the symbols of faith of the people of Sogd, as a result of the problems related to the history of the material culture of ancient Sogd and the research conducted in the Yerkurgan monument. studies the factors of arrival. Analyzing the samples of the ancient material culture, the scientist emphasizes that two types - Hellenistic and local styles had a mutually effective influence on the visual art of ancient Sogd, and their comparison and comparative analysis learns through methods. The data collected as a result of the research conducted in Yerkurgan proved that the ancient Yerkurgans had a high culture. Its architectural and artistic monuments revealed that ancient cultures developed side by side in vast areas, starting from the Etruscans and Greeks in the west to India and Siberia in the east.

Kalit so'zlar: moddiy madaniyat, terrakota, koroplastika, etrusk, antik davr, xiton, ehrom, tipologik obraz

Ключевые слова: материальная культура, терракота, короластика, этрусски, древность, хитон, эром, типологический образ.

Key words: material culture, terracotta, coroplastics, Etruscan, antiquity, chiton, ehrom, typological image

KIRISH

Qadimiy So'g'dning shaharsozlik madaniyati va u bilan bog'liq moddiy madaniyat tarixi R.H.Sulaymonovning uzoq yillik tadqiqotlarida alohida o'rin tutib kelmoqda. Bu tadqiqotlar olimning Yerqo'rg'on yodgorligida olib borgan qazishma ishlarida qo'lga kiritilgan ko'plab moddiy madaniyat namunalari ustida olib borgan izlanishlarida ko'zga tashlanadi. Uning tadqiqotlari orqali qadimiy So'g'd aholisining madaniy aloqalari, shuningdek, me'moriy va san'at yodgorliklarining qadimiy g'arb va sharq madaniyatlari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanganligi isbotlandi. [1: C.37-38].

TADQIQOT USULLARI:

Mavzuni yoritishda adabiyotlarni tizimli tahlil qilish asosida xolislik, tarixiylik, tarixiy izchillik kabi tarixiy usullar majmuasidan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yerqo'rg'on yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida olim tomonidan qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat namunalari orasida qadimiy So'g'd aholisining e'tiqod ramzlarini aks ettiruvchi terrakotalar alohida o'rin tutadi. R.X.Sulaymonov Yerqo'rg'onni miloddan avvalgi III-II asrlardayoq rivojlangan shahar bo'lganligini va bu davrda vohada koroplastika san'ati vujudga kelganligi, sopol buyumlarning shaklida o'zgarishlar bo'lganligi, bezaklarda ellincha usullar kuzatilishini ta'kidlaydi. [2: C.10-11].

Amaliy san'at ashyolari qatorida qadimiy muhrlar va ularga ishlangan tasvirlar qadimiy Naxshab aholisining keng madaniy aloqalarini ham ko'rsatganligini olim alohida ta'kidlaydi. Buni eramizdan avvalgi V asrlarda etrusklarga xos muhrlardan birida Zevsning burgut tutib turgan bo'y-basti gavdalantirilgan tasviri tushirilgan muxrga o'xshash bo'lgan muxrning topilishi bilan bog'laydi.

Olim tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida qadimiy zardushtiylar dahmasida miloddan avvalgi II asrga mansub zargarlik buyumlari, sopol parchalarining topilishi So'g'dning miloddan avvalgi va milodning dastlabki asrlariga xos sopol buyumlari ko'p jihatdan baqtriyaliklarnikiga o'xshashligi aniqlandi. Olim qo'lga kiritilgan qadimiy moddiy madaniyat namunalarini tahlil etib, So'g'dning antik davr tasviriy san'atiga ikki xil – ellincha va mahalliy uslublar o'zaro samarali ta'sir ko'rsatganligini ta'kidlaydi. Ular qadimgi Sharq va ko'chmanchi skif-sak badiiy madaniyati timsollariga borib taqalishi, vaqt o'tishi bilan esa tasviriy san'atda ellinizm davriga xos bo'lgan belgilar o'zgaradi. Devoriy tasvirlarda ham, so'g'd haykalchalarida ham ayol ma'budalari obrazlari ko'proq uchray boshlaydi. [3: C.41-45].

Yerqo'rg'ondan topilgan sopol haykalchalarning katta kolleksiyasi qadimgi so'g'dliklarning go'zallik haqidagi ideali hamda So'g'diyona panteonining boyligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi III-I asrlarga oid Yerqo'rg'on koroplastikasining tipologik obrazlariga ham ellincha va mahalliy usullarning o'zaro ta'siri kuzatiladi. Milodning birinchi ming yilligida ayol ma'budalar obrazi qavat-qavat burmali, beldan ancha balandda bog'langan ellincha ko'ylakda hamda qo'llari Naxshab haykalchalariga xos bo'lgan tarzda: o'ng qo'l ko'krak ostida, chap qo'l qorin ustida turgan holatda tasvirlangan. [4: C.118].

Shu xildagi kiyim Baqtriya, Marg'iyona, So'g'dning antik aslzoda ayollari obrazlarida keng tarqalgan bo'lib, ular mumtoz grekcha kiyim – xitondan nusxa olib ishlanganligi olim tomonidan ta'kidlanadi.

Olim Yerqo'rg'on terrakotalarining ikkinchi uslubiy yo'nalishini tahlil etib, unda mahalliyashtirilgan ayol ma'budalar yoyiq barmoqlarini ko'kragi ostiga qo'ygan holda tasvirlanganligini, keng ko'ylak yelpig'ichsimon shakldagi qismlardan iborat bo'lib, u ko'ylak burmalarini ifodalashi, bu esa ko'chmanchilarning etagi keng ot minib yurishga qulay kiyimi- deb alohida ta'kidlab o'tadi. Bo'ylamasiga burmalari qo'ng'iroq shaklida pastga tomon kengayib boruvchi kiyim tasviri cho'l tosh yodgorliklari, shuningdek, Surx-Ko'tala va Shoterak, Saksonoxur, Xolchayon, Dalvarzintepa, Mirzaqultepa terrakota haykalchalariga xosligini ko'rsatib beradi.

Qadimiy So'g'd e'tiqodlar tarixi moddiy madaniyat namunalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular orasida ayol ilohalar haykalchalari e'tiborga molik.

Naxshabga xos bo'lgan qo'lida bola ko'targan ona-iloha tasvirlangan haykalchalar ham e'tiborga sazovordir. Uslubiy jihatdan ellinlashgan va sharqona turdagi haykalchalar oraliqida turadigan kichik turkum haykalchalar ham mavjud bo'lib, ko'kragiga xochsimon tarzda mato bog'langan tarzda tasvirlangan. Bunday haykalchalar va ularning holati hindcha yakshinlar tasvirini eslatadi. Sof Osiyocho kiyimdagi haykalchalar nisbatan kam. Ular Naxshabga xos o'lchamlarni va holatlarni saqlab qolgan bo'lsa-da, tasvir jihatidan shartliligi bilan ajralib turadi. [5: C.27-31].

Olim Naxshab haykalchalarini tadqiq etar ekan, ularning o'ziga xosligiga e'tibor qaratadi. Ular o'zining tik qomati bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. [6: C.93].

Olim Yerqo'rg'on ehromining III qurilish davri bilan bog'langan sirli jilmayib turgan iloha tasviri va u bilan bog'liq bezak elementlari qadimiy krit -miken madaniyatiga o'hshashlik jihatlariga e'tibor qaratadi. Oliy siymolar qiyofasini bunday hollar bilan bezatish mutaxassislar uchun antik davrlardayoq Markaziy Osiyodan Yevropaga qadar sochilib ketgan qadimiy xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarning qoldiq izlari bo'lib hisoblanganligini alohida ta'kidlaydi.

Qadimiy So'g'd moddiy madaniyati namunalari qatorida qadimiy G'arb mifologiyasi bilan uyg'unlashgan topilmalar alohida o'rin tutadi. Olim tomonidan Yerqo'rg'ondan topilgan qurbaqa

haykalchasi tabiat kuchlari bilan bog'liq bo'lgan yunon mifologiyasi personajlaridan biri bo'lmish Silen va ilon suv unsuri bilan aloqadorligi ta'kidlanadi. Ushbu topilma qadimda sug'dliklarning qurbaqa bilan aloqador e'tiqodiy qarashlari mavjud bo'lganligini olim ta'kidlaydi. Bu – qurbaqa shaklidagi kichik tumor, miloddan keyingi birinchi ming yillikning ikkinchi choragiga oidligi aniqlangan. Tumor o'zining ko'rinishi bo'yicha Sopollitepadan topilgan qurbaqa shaklidagi sopol buyumga o'xshashligiga asoslangan professor R.X.Sulaymonov qurbaqani osmon suvlari va yomg'ir timsoli sifatida timsollashtirish bronza davri dehqonchilik madaniyati an'analariga borib taqalishini aniqladi. Yerqo'rg'onliklar yil seryog'in kelsin va suv mo'l bo'lsin degan niyatda qurbaqa shaklidagi tumorlarni taqib yurishgan. Arxeolog F.Petrining aniqlashicha, qurbaqa shaklidagi tumorlar qadimgi Misrning XXVI sulola davriga mansub yodgorliklarida uchraydi. [7: C.16].

Qadimgi so'g'dliklarda Yerqo'rg'on misolida ko'plab jonivorlar muqaddas sanalganligini ko'ramiz. Shulardan biri qo'y bo'lib, yerqo'rg'onliklar mifologiyasida olimning talqinicha, qut-baraka va omad timsoli deb tasavvur qilingan. Shuning uchun bu jonivor ko'rinishidagi tumor va haykalchalarni uyda saqlash ezgulik alomati hisoblangan. [8: C.10].

Yerqo'rg'on topilmalari orasida tuya haykalchalari so'g'dliklarning omad, g'alaba, muvaffaqiyat haqidagi ezgu qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan mifologik timsol bo'lganligi ham ta'kidlandi.

Qadimiy So'g'd moddiy madaniyatini yoritishda Qarshi vohasi hunarmandchiligi alohida o'rin tutadi. Olimning bu huddular arxeologik yodgorliklarida olib borgan qazishma ishlari natijasida qo'lga kiritilgan kulolchilik mahsulotlari alohida e'tiborga molik. Kulollar mahallasida arxeologik qazuv ishlari olib borilayotganda kul qatlami orasidan it boshi tasvirlangan qolip topilgan. Mutaxassislar fikricha, V-VI asrlarga mansub mazkur qolip it boshi shaklidagi tumorchalar tayyorlashda qo'llanilgan. Topilma qadimgi yerqo'rg'onliklar mifologiyasida it yovuz kuchlardan himoya qiluvchi jonzot sifatida e'tirof etilganligi ko'rsatiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu aytish mumkinki, R.H. Sulaymonov Yerqo'rg'on yodgorligidan topilgan ko'p miqdordagi moddiy ashyolar qadimiy va ilk o'rta asrlarda Qashqadaryo vohasining O'rta Osiyo mintaqasidagi tarixiy va badiiy jarayonlarga uyg'un holda kechganligini ko'rsatib berdi. Yerqo'rg'onda olib borilgan tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar qadimgi yerqo'rg'onliklarning yuksak madaniyatini ko'rsatadiganligini isbotlab berdi. Undagi me'moriy va san'at yodgorliklari qadimiy madaniyatlarning g'arbdagi etrusklar va yunonlardan boshlab Sharqda Hindiston va Sibirga qadar keng maydonlarda yonma-yon rivojlanganligini aniqladi.

ADABIYOTLAR

1. Qarshi – 2700. «Ma'naviyat». 2006.- bet 37 (Karshi - 2700. "Spirituality". 2006.- page 37)
2. Rtveladze E.V, Buryakov Yu. F, Sulaymonov R. H, va b. Qarshi.T.:Ma'naviyat, 2006.- bet 38 (Rtveladze EV, Buryakov Yu. F, Sulaymonov R.H, and others. Karshi. T.: Ma'naviyat, 2006. - page 38)
3. Suleymanov R.X. Daxma Yerkurgana ONU 1989 №11 bet 41-45 (Suleymanov R.Kh. Dakhma Yerkurgana ONU 1989 №11 p. 41-45)
4. Неведов Н.Ю. Культурно-мемориальное сооружение Еркургана II-IV вв Н.Э. Археологические работы на новой стройке Узбекистана Под.редак. М.И. Филанович. Т.1990.бет 118-126 9 (Nefedov N.Yu. Cult-memorial construction of Yerkurgan II-IV centuries A.D. Archaeological work on new buildings in Uzbekistan Ed.ed. M.I. Filanovich. T.1990.p. 118-126)
5. Sulaymonov. R. X. Naxshab – unutilgan tamaddun sirlari. T.: «Ma'naviyat». 2004.- bet 27-31. (Suleimanov. R. Kh. Like - the secrets of the forgotten civilization. T.: "Spirituality". 2004.- pp. 27-31.)
6. Сариниди В.И. Храм и некрополь Тилятепе. М.: Наука. 1989. бет 93. (Sarianidi V.I. Temple and Necropolis Tilyatepe. M.: Nauka. 1989. page 93.)
7. Шевяков А.И. Образ лягушки в верованиях народов Евро Азии. Ташкент: Б.И.1995.бет 16 (Shevyakov A.I. The image of a frog in the beliefs of the peoples of Euro-Asia. Tashkent: B.I.1995.бет 16)
8. Mamatkul Jorayev. Yerqo'rg'onning muqaddas jonivorlari«Fan va turmush», № 5-6, 2006. бет 10.(Mamatkul Jorayev. Sacred animals of Yerkurgan "Science and Life", No. 5-6, 2006. Page 10.)
- Nosirovna M. A. The role of Suleymanov Rustam Khamidovich in the study of urban development of ancient period in Uzbekistan //Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya. – 2019. – №. 12-2 (145). – S. 85-87.
- Makhmudova A. N. ISSUES OF HISTORY WORLD CIVILIZATION IN THE SCIENTIFIC RESEARCH OF RH SULEYMANOV //Austrian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2021. – №. 1-2. – S. 20-24.
- Махмудова А. Н. Человек, преданный науке //Молодой ученый. – 2020. – №. 9. – С. 130-132.(Makhmudova A.N. A man devoted to science //Young scientist. – 2020. – no. 9. - S. 130-132)